

---

## Qirg'izistonlik nuroniylar "Chimyon"da dam oldilar

Viloyat hokimligi tashabbusi bilan Qirg'iziston Respublikasining 30 nafar nuroniylari Farg'ona tumanidagi "Chimyon" sihatgohida 10 kun mobaynida dam oldilar.

Viloyat hokimi Shuhrat G'aniev sihatgohga tashrif buyurib, bu erda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Qirg'izistonlik nuroniylar bilan uchrashib, samimiy suhbatlashdi.

Mehmonlarning maroqli dam olishlari, viloyatimiz ko'rki va go'zalligidan bahramand bo'lishlari uchun ekskursiyalar tashkil etildi. Farg'ona shahrining diqqatga sazovor joylari, Qo'qon shahridagi muhtasham binolar ularda katta taassurot qoldirdi.

89 yoshli G'olibjon ota Isaqov, 80 yoshli Ismon ota Islomqulov, 79 yoshli Toyqora ota Tog'aevar shaharlar qiyofasining yangicha ko'rinishi, zamonaviy arxitekturasi avvalgi qiyofasidan butkul farq qilishini to'lqinlanib gapirishdi. Qo'llarini duoga ochib, yurtimizga omonlik, tinchlik, millatlar o'rtasida totuvlik doimo mustahkam va abadiy bo'lishini so'rab, duo qildilar.

E'tiborlisi, xayrli tadbir tufayli 500 nafar nuroniylar sihatgohda salomatliklarini tiklash imkoniga ega bo'ladilar.

Tadbirda Qirg'iziston Respublikasining Qadamjoy shahri meri Baqitbek Begaliev, Qadamjoy tuman hokimi birinchi o'rinbosari Abdubannop Jakbarov, Farg'ona tumani hokimi Sodiqjon Imomaliev ishtirok etdi.





Kamola POLVONOVA.

Shamsiddin QORABOEV olgan suratlar.

2018-02-22 17:03:48